

“ZAFARNOMA” ASARINING AMIR TEMURNING YURISHLARI VA ELCHILIK TARIXINI O‘RGANISHDAGI ROLI.

Nematova Zarnigor

Mirzo Ulug ‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti

Tarix fakulteti tarix yo‘nalishi

I bosqich magistranti.

Annotatsiya: Maqolada Amir Temurning buyrug‘i bilan yozilgan muallifi Nizomiddin Shomiy bo‘lgan “Zafarnoma” asari va undagi ma’lumotlar qisqacha ko‘rib chiqiladi. Tug‘ilgan joyi Tabriz chekkasidagi Shanbi G‘ozon deb atalgan mavzeda deb taxmin qilinuvchi asar muallifi haqida ma’lumotlar juda oz bo‘lib uning eng yirik va tarix uchun juda kerakli asari “Zafarnoma”dir. Ushbu asar 1401\1402-yil apreldan 1405-yil bahorgacha bo‘lgan davrda yozilgan bo‘lib Sohibqiron asarni sodda, avom uchun ham tushunarli ammo o‘z davri uchun muhim bo‘lishi kerakligini buyurganligi muallif tomonidan asarda ta’kidlangan. Ushbu maqolada asar tarix va siyosatda nechog‘liq muhimligi yoritib berilgan. Amir Temur hayoti va faoliyatini o’rganish, undan amaliy foydalanish hozirgi davr uchun ham muhimligi albatta aniq va ravshandir.

Kalit so’zlar: Zafarnoma, Amir Temur, Chingizzon, Chig’atoy, Jo‘ji, O‘ktoy elchilik, harbiy yurish, fath etish, yurishlar

Yurtimizda Amir Temurning hayoti va davlatchilik faoliyatini xolis o‘rganish, targ‘ib qilish mana bir necha yildirki davom etmoqda. Bu targ‘ibotlar albatta mustaqillikdan so‘ng avj oldi.¹ O‘tgan yillar davomida Amir Temur davriga bag‘ishlangan

¹ Amir Temur davlat boshqaruvi. Shohistaxon O’ljayeva. Toshkent: “Akademnashr”, 2017.

qator ilmiy tadqiqotlar dunyoga keldi. Ko‘plab temurshunos olimlar uning hayotini o‘rgandilar.

Amir Temur va Temuriylar davri savdo-elchilik munosabatlari, umuman olganda tarixshunoslikka nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu davrda ko‘plab adabiyotlar yaratilganini, hukmdor tomonidan ilm ahliga katta e’tibor qartilganini ko‘rish mumkin. Bunga misol qilib, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarlarini keltirish mumkin. Savdo munosabatlarini ochib bera olmasada, elchilikka doir ko‘plab ma’lumotlar beruvchi ushbu manba Sohibqiron tomonidan yozilishi buyurilganini asarda muallifning o‘zi bayon qilib ketgan. Amir Temur Nizomiddin Shomiy bilan ikkinchi marotaba uchrashganlarida (1401-yil 11-avgustdan 1402-yil 1-avgust oralig‘i) Shomiyni o‘z huzuriga chorlab, yurishlari bitilgan yirik bir asar istayotgani, boshqa yozuvchilarining asarlaridan qoniqmayotgani, ularda haddan ortiq bo‘rttirish borligi, Sohibqiron esa asar avom xalqqa tushunarli sodda, ravon tilda va ma’rifatli kishilarga ham manzur keladigan tarzda yozilishini istaganini va bu ishni Shomiyga topshirmoqchi ekanligini bayon etgan. Nizomiddin Shomiy bu taklifni bajonidil qabul qilgan va asarni yozishni boshlagan.

Asar yozilish jarayonida tabiiyki, Amir Temurning keyingi barcha harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Bu davr mobaynida Amir Temur Nizomiddin Shomiyga yuksak darajada hurmat-ehtirom ko‘rsatgan. Hatto Shomiy 1404-yili 12-aprel kuni ramazon munosabati bilan namozga yig‘ilgan jamoaga va’z aytib, so‘ng peshnamozlikni ado etgan – “Shu yil ramazon iydini hazrat Sohibqiron Obi Og‘liq yoqasida kutdi. Zamonaning balog’atifuzalolaridan bo’lgan va hazrat Sohibqironning ezguliklari va faxrli ishlaridan bir qanchasini bayon qalami bilan ifodalagan mavlono Nizomiddin Shanbiy iyd xutbasinining qiroatiga va namoziga kirishdi”²

Bu voqeadan ko‘p o’tmay mavlono Nizomiddin Shomiy asarni tamomlagan va 1404-yil bahorida Ozarbayjondan Samarqandga qaytishga tayyorgarlik ko‘rayotgan Amir Temurga taqdim etgan. Temurga ushbu asar juda ma‘qul keladi va mavlononi taqdirlaydi. Asardagi keyingi voqealar esa (Amir Temurning vafotigacha bo‘lgan davr – 1405-yil 18-

² Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent, 1972, 449b – 450 varaqalar.

fevral) keyinroq muarrix Hofizi Abru tomonidan “Zafarnoma”ga “Zayl”, ya’ni “Ilova” tarzida yozib qoldirilgan.

Asar 110 bobga ajratilgan bo‘lib, Nizomiddin Shomiyning o‘zi yozgan. Bundan tashqari “Ilova” tarzida 12bob yozilgan, 4ta bobga esa Shomiyning “Zafarnoma”dagi ba’zi so‘zlarga izoh, Hofizi Abruning ilovasiga izoh, atama va tarixiy istilohlarga izoh va shaxs ko‘rsatkichlari yozilgan. Nizomiddin Shomiy Amir Temurning mamlakat va davlat qonun-qoidalarini mardonalik kuchi bilan, saodatli tolei baroikoti, taqdirga muvofiq tadbiri va yaxshi kechmishlar bilan mustahkamlagani haqida yozib qoldirgan³

Asardagi ma’lumotlarga kelsak, o‘sha davr adabiyotlari kabi albatta, Allohga hamd aytish, payg‘ambar Muhammad sallolohu alayhi vassalam, so‘ng 4ta xalifalar – Abu Bakr Siddiq , Umar ibn Hattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, keyin esa boshqa mo‘tabar kishilarni yod etish bilan boshlagan. Undan so‘ng asarni yozishdan maqsadi haqida qisqacha bayon etgan. Ikkinchи bobida esa Chingizzon, uning to’rt o‘g‘i – Jo‘ji, Chig‘atoy, O‘ktoy, To‘li, Chingiziy hukmdorlar haqida qisqacha ma’lumotlar so‘ng Amir Temur va uning shajarasi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bunday yozish tartibini islom dini kirib kelgach O’rta Osiyo olimlarining deyarli barcha asarlarida ko‘rish mumkin.

Asarning keyingi boblarida Amir Husayn bilan bo‘lgan munosabatlar keltirilgan. Ularning munosabatlari yomonlashish jarayoni 6 va 7-boblarida mufassil tasvirlangan. 7, 8, 9, 12, 13, 14, 17, 19- boblarida esa Amir Husayn va Amir Temur o‘rtasidagi janglar bayoni keltirilgan. Keyingi boblarda esa To‘xtamishxon, Amir Vali, Kayxisrav va boshqa ko‘plab shaxslar bilan bo‘lgan munosabatlar, Xorazmga, Dashti Qipchoq Iroq, Mozandaron, Fors, Sheroz, Hindiston, Sivos, Rum, Gurjiston qilingan yurishlar, Hirot, Halab, Damashq, Bag‘dodning zabit etilishi, ko‘plab qal’alarning fath etilishi va yangi shahar va qal’alarning bunyod etilishi haqida alohida boblarga ajratib soda tilda bayon etilgan. Amir Temurning Xorazmga yurishlari, Yusuf So‘fi bilan bo‘lgan munosabatlar va yozishmalar, elchilik aloqalari ham muallif tomonidan aniq ma’umotlar bilan keltirilgan.

³ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent: “fan”nashriyoti, 2019.

Asarning muhimliligi dunyo tan olgan, davlatni yuksak darajaga olib chiqsa olgan, ko‘plab dushmanlarga qarshi mardonovor kurash olib borgan, o‘sha davrning eng buyuk davlatlaridan bo‘lgan Usmonlilar davlatini jangda yenggan, jangdan so‘ng raqibiga hurmat bilan muloqotga bo‘lgan, chekka, kichik davlatlar hisoblangan Angliya, Fransiya, Ispaniya davlatlari bilan elchilik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan Amir Temurning yurishlarini mufassil tasvirlab bergenidadir. Asar shuningdek, tushunarligi, soda tilda yozilganligi va ma’lumotlar aniqliligi bilan ajralib turadi. Asardan nafaqat tarix uchun, balki hozirgi kun diplomatiyasida foydalanish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent, 1972.
2. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent: “fan”nashriyoti, 2019.
3. Amir Temur davlat boshqaruvi. Shohistaxon O’ljayeva. Toshkent: “Akademnashr”, 2017.